
Ichki yo'llarda shag'allashtirish ishlari davom etmoqda

Rishton tumanida mavjud 71 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida aholini qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf etish, ularga qulayliklar yaratish borasidagi ishlar davom etmoqda.

Ayniqsa ko'p yillardan buyon qishda loy, yozda chang bo'lgan yo'llarni toshlash, ravon, tekis yo'llarga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Mahalla fuqarolar yig'inlari bilan hokimlik mutasaddilari har bir ko'chani ahamiyatidan kelib chiqib, uning holatini o'rganib chiqishmoqda.

O'rganish natijalarida tegishli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, tuman yo'lsozlari, homiy pudratchi korxonalar ko'magida toshlash, shag'allashtirish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Xususan, "Yuqori Avazboy" MFYning ichki yo'llarida shag'allashtirish ishlari davom etmoqda.

Bu kabi ishlar tumanning olis va chekka hududlaridagi mahalla, ko'cha va yo'llarga ham kirib bordi.

2023-06-19 14:57:58